

ANTIDOPING

Muhim faktlar va asosiy jihatlar



WADA nima?

Butunjahon antidoping agentligi (WADA) – 1999-yilda sportda dopingga qarshi kurashni targʻib qilish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish uchun tashkil etilgan xalqaro mustaqil tashkilotdir.

UzNADA nima?

Bu Oʻzbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi (UzNADA) boʻlib, uning asosiy vazifasi sportchilarning dopingsiz musobaqalarda ishtirok etish huquqini himoya qilishdan iborat.

DOPING nima?

DOPING – bu bir yoki bir nechta antidoping qoidalarini buzishdir.





ANTIPOING qoidabuzarlik turlari:

1 Ta'qiqlangan modda, uning metaboliti yoki markerining sportchidan olingan sinamada mavjudligi

2 Sportchi tomonidan ta'qiqlangan modda yoki uslubni qo'llash yoki qo'llashga urinish

3 Doping-test topshirishdan bosh tortish, qarshilik ko'rsatish yoki tashrif buyurmaslik

4 Sportchi tomonidan ADAMS tizimida ma'lumot taqdim etish tartibini buzish

5 Sportchi yoki uning personal tomonidan doping-nazoratining barcha bosqichida soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish

6 Ta'qiqlangan modda yoki ta'qiqlangan usulni qo'llash uchun asbob-uskunalarga egalik qilish

7 Sportchi yoki uning personali tomonidan ta'qiqlangan modda yoki anjomni tarqatish yoki tarqatishga urinish

8 Sportchiga ta'qiqlangan modda yoki uslubni tavsiya qilish yoki tavsiya qilishga urinish

9 Antidoping qoidabuzarligida hamkorlik qilish, yordam ko'rsatish, rag'batlantirish, uyushtirish, yashirish va boshqalar

10 Diskvalifikasiya jazo muddatini o'tayotgan sportchi yoki uning personali bilan hamkorlik qilish

11 Antidoping qoidabuzarligi haqida ma'lumot yoki isbotni ko'ngilli ravishda taqdim etganetgan shaxsga qarshi qasddan harakat qilish



Taqiqlangan substansiya va usullar ro'yxati

Ushbu ro'yxat sportchilarga musobaqa va musobaqadan tashqari davrda qo'llaniladi. WADA har yili ro'yxatni yangilab, uning eng so'nggi versiyasini o'z veb-saytiga joylashtiradi. UzNADA o'z saytida ro'yxatning o'zbek tiliga tarjimasini e'lon qiladi.

- ✓ Har qanday dori vositasi, oziq-ovqat qo'shimchalari, moddalar yoki usullardan mas'uliyatsiz foydalanish eng yuqori natijalarni nolga tushirishi mumkin.
- ✓ Biologik faol qo'shimchalarni (parhez qo'shimchalarini) qabul qilishda juda ehtiyot bo'lishlari kerak, chunki ular tarkibida taqiqlangan moddalar bo'lishi mumkin.
- ✓ Biologik faol qo'shimchalarni (parhez qo'shimchalarini) qabul qilishdan oldin har doim maslahatlashib, taqiqlangan moddalar mavjudligini tekshirish zarur. Bunda:
 - **Taqiqlangan ro'yxatni** yaxshi biladigan yuqori malakali shifokorning maslahatini olish
 - UzNADAning <http://uznada.uz/> sayti orqali tekshirish
 - WADAning <http://www.wada-ama.org/> sayti orqali tekshirish.



Joylashuv axboroti

Agar siz test sinovlari olinuvchilar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsangiz, joylashuvingiz haqida quyidagilarni o'z ichiga olgan aniq ma'lumotlarni taqdim etishingiz shart:

- ✓ Test olish manzili
- ✓ Mashg'ulotlar jadvali va joyi
- ✓ Musobaqa jadvali
- ✓ Doimiy faoliyatingiz haqida ma'lumot (ish/o'qish)



TERAPEVTIK ISTISNO

Terapevtik istisno uchun ruxsat olingan taqdirda, sportchiga tarkibida taqiqlangan moddalar bo'lgan ma'lum preparatlarni qabul qilishga ruxsat berilishi mumkin.

So'rovnoma tarkibida taqiqlangan substansiya bo'lgan preparatni qo'llash maqsadga muvofiqligining hujjatli asosini o'z ichiga olishi kerak.

Milliy darajadagi sportchilar UzNADAgga so'rov yuborishlari kerak.

Xalqaro darajadagi sportchilar ADAMS orqali ariza topshirishingiz mumkin.

Agar sizda hali ADAMS akkauntingizbo'lmasa, uni sozlash uchun biz bilan bog'laning: +998951996601, (uznada@mail.ru)

Sinovdan o'tkazish (doping nazorati)

Agar milliy va/yoki xalqaro miqyosda musobaqalashsangiz, Xalqaro Federatsiyangiz, UzNADA yoki yirik musobaqalar tashkiliy qo'mitasi sizni istalgan vaqtda, istalgan joyda doping nazorati jarayonidan o'tkazish uchun tanlashi mumkin. Doping nazorati jarayonini maxsus o'qitilgan va akkreditatsiyadan o'tgan xodimlar amalga oshiradi.

Test sinovlari musobaqa va musobaqadan tashqari davrlarda o'tkazilishi mumkin.

Sportchi doping nazorati muolajasidan o'tish uchun qaysi mezonlarga ko'ra tanlanadi?

- ✓ Musobaqalarda sizni tasodifiy tanlov yo'li bilan, marraga yetib kelish natijalaringizga ko'ra yoki maqsadli sinovlar asosida tanlashlari mumkin..
- ✓ Musobaqadan tashqari davrda sizni istalgan vaqtda, istalgan joyda va oldindan ogohlantirishsiz sinovdan o'tkazishlari mumkin.



“Doping-test ro'yxati”ga kiritilgan har kuni bir soatlik mutlaq mavjudlik oralig'ini ham ko'rsatishlari shart. Agar sportchi belgilangan soat davomida ko'rsatilgan manzilda bo'lmasa, bu holat o'tkazib yuborilgan test sifatida qayd etilishi mumkin. Sportchilar ADAMS ma'lumotlar bazasiga joylashuv ma'lumotlarini kiritishlari va yangilab turishlari kerak.

Doping namuna olish jarayoni

1. Sportchini doping test olish uchun tanlanganligi haqida ogohlantirish!

2. Doping nazorat stansiyasida ro'yxatdan o'tish!

3. Namuna topshirish uchun maxsus idishni tanlash!

4. Namuna topshirish uchun maxsus idishni tanlash!

5. Namuna topshirish uchun maxsus idishni tanlash!

6. Namuna topshirish uchun maxsus idishni tanlash!

7. Namunani muhrlash!

8. Namunaning zichligini tekshirish!

9. Doping nazorati shaklidagi ma'lumotlarni tekshirish!

10. Doping nazorati jarayonini tugatish.



Natijalarni qayta ishlash

Dopingga qarshi qoidalarni buzganlik uchun jazolar ogohlantirishdan to umrbod chetlashtirishgacha bo'lishi mumkin. Chetlashtirish muddati dopingga qarshi qoidabuzarlikning turi, har bir holatning o'ziga xos jihatlari, aniqlangan modda hamda dopingga qarshi qoidalar takroran buzilganligi yoki buzilmaganligiga qarab turlicha bo'lishi mumkin

Adolatli sud muhokamasi o'tkazilishiga huquqingiz bor va dopingga qarshi qoidalar buzilgandan so'ng, sizga nisbatan qo'llanilgan ijobiy test natijalari yoki sanksiyalarga oid har qanday qaror ustidan shikoyat qilish huquqiga egasiz.

